

## ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

*Davletbayeva Charos Baxadirovna*

*Qoraqolpog'iston Respublikasi Nukus Davlat Pedagogika Instituti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola, ona tili darsida o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish, malaka hamda ko'nikmalarini hosil qilish, ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlar va ularning mohiyati to'g'risida misollar orqali fikr yuritadi.

**Kalit so'zlar:** Til me'yorlarini o'rgatish, nutqni o'stirish, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, topshiriqlar tizimi, so'z boyligini oshirish, o'yin-topshiriqlar.

O'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlari o'rta maktabning o'zbek tili darsliklarida berilgan. Mazkur topshiriqlar turli usullar bilan o'qituvchi hamkorligida o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarishi lozim. Ijobiy natija beradigan topshiriqlarning asosiy turlaridan biri grammatik o'yin-topshiriqlardir. Bu turdagi topshiriqlar o'quvchilardan zukkolikni, bilimdonlikni, izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi. [1]Ona tili darslarining qiziqarli o'tishida o'yin-topshiriqlarning ahamiyati juda katta. Biroq "O'zbek tili o'qitish metodikasi"da grammatik o'yin-topshiriqlar va ulardan foydalanish metodikasi yetarli darajada ishlanmagan. O'yin-topshiriqlarga hos bo'lgan jihat shundan iboratki, u ko'pincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunida, o'quvchi va guruhlariga rag'bat yoki ballar berilishi, shubhasiz, o'quvchilarda topshiriqni bajarishga ishtiyoqni oshirishga sabab bo'ladi. Natijada, o'quvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va shu fanga muhabbati ancha oshadi. [2]Shu bilan birga, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, boshqa fanlar bilan ham jiddiy shug'ullanish ehtiyojini tug'diradi. Shunini inobatga olgan holda, o'qituvchi darslarining samarali bo'lishi uchun turli o'yin-topshiriqlardan va boshqotirmalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi davr talabi ham, fan o'qituvchisidan mahorat, ijodkorlik, eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi. Shularni hisobga olgan, holda ona tili darslarini o'tishda ishlatish mumkin bo'lgan ayrim grammatik o'yinlar, boshqotirmalar va ulardan foydalanish metodlarini ko'rib chiqamiz. Bunday grammatik o'yinlarni yanada ko'plab o'ylab topish vaularidan dars jarayonida foydalanish mumkin. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga, mahorati va tinimsiz qiladigan mehnatiga bog'liq.

Ma'lumki, o'yin-topshiriqlar o'quvchilar malaka va ko'nikmalariga ko'ra, murakkablik darajasiga ko'ra guruhlanib, soddadan murakkablik dinamikasiga qarab boradi. [3]

1. Qayta xotirlash tipidagi o'yin topshiriqlar. O'tilgan mavzularni mustahkamlash hamda bilim va malakalarni tekshirish darslarida bunday o'yin-topshiriqlardan ko'proq foydalaniladi. Masalan, "Atoqli va turdosh otlar" mavzusiga oid darslarni mustahkamlash maqsadida "Kim g'olib?" o'yin-topshirig'idan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun sinf ikki guruhga ajratiladi: biri atoqli otlarga, ikkinchisi turdosh otlarga misol topishadi. Ma'lum bir belgilangan vaqt ichida ko'p misol topgan g'olib sanaladi.[4]O'qituvchi doskaga kundalik, surat, kinofilm kitob, gazeta, jurnal, so'zlarini alohida-alohida yozib qo'yadi. Sinf olti guruhga bo'linib (o'quvchilar soni hisobga olinishi zarur. Agarda guruhlarga teng bo'linmaydigan bo'lsa, guruhlar sonini kamaytirishi yoki ko'paytirishi mumkin), ulardan shu otlarga misollar yozish talab qilinadi. Guruhlarning har bir a'zosi o'ziga qarashli so'zga bittabittadan misol yozadi. Tez va to'g'ri yozgan guruh g'olib sanaladi. G'oliblar, albatta, rag'batlantirilishi kerak. Istalgan mavzuni mustahkamlashda bunday o'yin-topshiriqlardan foydalanish mumkin. Yoki o'quvchilarning o'zaro bog'lanishli yozma nutqini sinash maqsadida "So'zlar bizdan, matn tuzish sizdan" o'yinini o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilarga tayanch so'z va so'z birikmalarni berib (ular doskaga yozib qo'yilishi ham mumkin), ular yordamida bog'lanishli matn tuzish topshiriladi, tez va mazmunli matn tuzgan o'quvchi g'olib sanaladi.[5]O'quvchilar so'z boyligini oshirish DTS talablaridan biri hisoblanadi, izlanuvchanlik xarakteridagi o'yin-topshiriqlarni qo'llash yaxshi bu ko'nikma rivojlanishiga yaxshi natija beradi. Bunday topshiriqlar o'quvchilardan ijodiy faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. "Ijodkor" o'yin-topshiriqdan "Ravish" mavzusini o'tishda samarali foydalanish mumkin. Bu grammatik o'yinda sinf ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhga sifat so'z turkumi ishtirok etgan gaplarga misol aytish, ikkinchi guruhga esa shu gaplardagi ot(lar)ni ravish bilan almashtirib gap tuzish topshiriladi.

Masalan: Birinchi guruh vakili yozadi: Men olimpiadada yaxshi insho (qanday insho?)yozdim. Ikkinchi guruh davom ettirib: Unda bizning guruh yaxshi ishtirok etadi(qanday ishtirok etdi?). Shu yo'sinda davom ettiriladi. Bu o'yinni o'quvchilar o'rtasida yoki parallel sinflar o'rtasida "so'z mushoirasi " tarzda davom ettirsa ham bo'ladi.Ona tili ta'limi jarayonida topshiriqlar tizimi vositasida til hodisalari kuzatiladi, solishtirib qiyoslanadi, o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi, umumiy va xususiy tomonlariga qarab guruhlanadi, umumlashma qoidalar hosil qilinadi. Natijada qayta xotirlash topshiriqlaridan ijodiy topshiriqlarga qarab dinamik o'sish yuzaga kela boradi. O'quvchi tafakkuri taraqqiyotida bunday topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv topshiriqlarining soddadan murakkabga tomon o'sish dinamikasini aniqlash, belgilash murakkab jarayondir. Topshiriqlar shunday yo'sinda joylashtirilishi

lozimki, o`quvchi tafakkuri taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilsin. Ijodiy topshiriqlar, ya'ni o`quvchi tafakkurini o`stiruvchi topshiriqlar o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lishi zarur: - o`quvchini izlashga, fikr qilishga, noma'lumni topishga undasin; - o`quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo`naltirishi zarur; masalaning murakkablasha borishi o`quvchi aqli, farosatini o`stira borishi kerak; - bu jarayonning kechishi o`quvchilarda jamoa bo`lib ishlash ko`nikmalarini hosil qila borishi lozim; - topshiriqlarni bajarish jarayoni o`quvchida o`ziga ishonch, o`zini (bilimini) anglash, imkoniyatlarini aniqlay olish, yangi bilim olishga undashi shart.[6]

### **Xulosa:**

Yangilangan ta'lim mazmuni asosida yaratilgan darsliklarda tilshunoslikning hamma bo`limlariga mo`ljallangan mashg`ulotlarda darslar ta'rif, qoida bilan boshlanmasdan, ya'ni o`quvchilarga bilimlar tayyor holda berilmasdan har bir mavzu uchun mo`ljallangan topshiriqlar tahlili bilan boshlanadi. Mana shu o`rinda o`qituvchi mahorati, qobiliyati, uquvi namoyon bo`ladi. Ana shu jarayonda bir faoliyat usulidan bosqichma-bosqich ikkinchi faoliyat usuliga o`tishi, ya'ni kuzatishdan umumiy xususiyatlari asosida guruhlashga, takrorlashdan o`xshash va farqli tomonlarini aniqlash asosida umumlashmalar shakllanadi. Shundagina berilgan topshiriqlar til hodisalarining mohiyatini ochishga xizmat qiladi. 5-sinfda fonetika bo`limi o`tilayotganda quyidagi grammatik topshiriqlardan foydalanish mumkin: 1-topshiriq. i-u, a-o, o`-u, i-e, b-p, d-t, z-s, j-ch juftliklari bilan farqlanuvchi so`zlar hosil qiling.

2-topshiriq. x-h tovushlari bilan farqlanuvchi so`z juftlari hosil qiling. H fonemasining talaffuziga e'tibor bering.

3-topshiriq. ng harfiy birikmasiga so`zlar toping va ularni bo`g`inlarga ajrating.

4-topshiriq. "yaxshi" va "yomon" so`zlarining o`xshash va farqli tomonlarini toping. O`xshash tomonlari: 5ta harf, 2ta unli, 3ta undosh, 2ta bo`g`in, urg`u oxiriga tushadi, 5ta tovush. Farqli tomoni deysizmi? Ma'nosi-chi? Uning antonimligichi?

5-topshiriq. "x" tovushli so`zlar zanjirini tuzing. Baxt - taxt - tuxum - mirrix - xayol - laxtak - kimxob - baxmal - laxta - axta - axir - ruxsat - taxta - axloq - qix - xafa - axir - ruxsat - taxt - taxlit - taxmin - narx - xabar - ruxsatnoma - axtar - ruxsor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бегматов Э., Турсункулов М. Ўзбек нутқи маданияти асослари. -Тошкент: Ўқитувчи, 1991.[1]
2. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умуркулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. -Тошкент: 1998.[2]
3. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. Тошкент' Ўзбекистон, 1992. [3]
4. Маҳмудов Н. Тил.-Тошкент: Ёзувчи. 1998.[4]
5. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Тошкент. Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона, 2007. [5]
6. Нусратулло Атоулло ўғли Жумахўжа. Истиқлол ва она тилимиз. -Тошкент, 1992.[6]